



FROM THE HISTORY OF THE NEW STAGE OF POLITICAL REFORMS IN INDEPENDENT UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF SAMARKAND REGION)

Mardiyev Q.E.¹

¹Master of the department "History of Uzbekistan" of the Faculty of History of SamSU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4717463>

ARTICLE INFO

Received: 17th April 2021
Accepted: 21nd April 2021
Online: 23rd April 2021

KEY WORDS

district, city,
deputy, people, council

ABSTRACT

This article provides information on the reforms implemented in Samarkand during the years of independence of Uzbekistan. They talked about the changes that have taken place in Samarkand and their implementation, as well as the rise of political reforms to a new level.

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA SIYOSIY ISLOHATLARINING YANGI BOSQICHI TARIXIDAN (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Mardiyev Q.E.¹

¹SamDU Tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida magistri

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17-aprel 2021
Ma'qullandi: 21-aprel 2021
Chop etildi: 23-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

tuman, shahar, deputat,
xalq, kengash

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonning mustaqillik yillarida Samarqandda amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida ma'lumot berilgan. Bunda Samarqandda qanday o'zgarishlar yuz berganligi va ularning hayotga tadbiq etilishi, shuningdek siyosiy islohotlarni yangi bosqicga ko'tarilishi haqida so'z yuritilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi rivojlantrishga kirishildi. Mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardayoq O'zbekistonda demokratiyani taraqqiy toptirish uchun hozirgi zamon jahon standartlariga javob bera oladigan samarali va ishchan davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish zarurati

yuzaga keldi. Shu munosabat bilan davlatimiz mustaqillik yillarida boshqaruvi organlari faoliyati isloh etib borildi. O'zbekiston mustaqillik yillarida shiddat bilan rivojlanib bormoqda bunday sharoitda butun dunyodagi davlatlar O'zbekistonda kechayotgan iqtisodiy jarayonlar bilan bir qatorda siyosiy jarayonlarga diqqat bilan kuzatib bormoqda. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat



barpo etish jarayonida ko'plab vazifalar belgilangan edi. Eng muhim vazifalardan biri respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining aholi turmush darajasini yaxshilash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. Hozirgi amalda bo'lgan mahalliy vakillik organlari xalq deputatlari Sovetlari negizida tashkil qilingan. Biroq bular oldingi tizimdan demokratik mohiyati bilan tubdan farq qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari" deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, vazifalari, tuzilish tartibi mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ko'ra, avvalgi mahalliy vakillik organlarining nomi Kengashlar deb o'zgartirildi¹. Ularning samarali ishlashini ta'minlash uchun viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari vujudga keltirildi. O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinguncha mahalliy vakillik organlarining uch bo'g'inli tizimi mavjud bo'lib hisoblanadi, ular:

1) viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari (Sovetlari) – yuqori bo'g'in;

2) tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari – o'rta bo'g'in;

3) qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari – quyi bo'g'in.

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimini mustahkamladi, ya'ni quyi bo'g'in olib tashlandi. Ular o'rniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati, hokimiyat organlari ikki mustaqil organlarga – vakillik va ijroiya hokimiyatiga bo'lindi. O'zbekistonda so'ngi yillarda amalga oshirilgan siyosiy islohatlar natijasida davlat

¹ .SH.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. «O'zbekiston» 2016.

ijroiya hokimiyati tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Prezidentimizning 2016-yil 28-dekabrda qabul qilingan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»²gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati, Prezident devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida Prezidentning Xalq qabulxonasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, har bir tuman va shaharda Prezidentning Xalq qabulxonalari, Prezidentning virtual qabulxonasi tashkil etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalq bilan faol va ochiq muloqot olib borish, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash borasida asos solgan yangi tizim – Xalq qabulxonalari instituti ijtimoiy adolatni ta'minlash borasida o'zbekona hayot falsafasi va milliy davlatchilik maktabiga xos barhayot an'analarning yangi taraqqiyot bosqichi bo'lish bilan birga, mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish yo'lidagi strategik maqsadlarga erishishning qudratli vositasiga aylanmoqda³. Prezidentning 2018-yildagi Parlamentdagi murojatnomasida quyidagi so'zlar orqali davlatimizda viloyat va tumanlar hokimliklarini vakolatlarini kengaytirish masalasini ko'rsatib berildi. "Biz uchun eng og'ir muammolardan biri – davlatning funktsiya va vakolatlari haddan tashqari markazlashib ketganidir. Masalan, hozirgi vaqtda 64 ta litsenziya turi mavjud bo'lsa, shundan 21 tasi Vazirlar Mahkamasi va 40 tasi markaziy idoralar tomonidan beriladi. Bu litsenziyalarning uchtasi viloyat hokimliklari va faqatgina bittasi tuman

² SH.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. "O'zbekiston" 2017.

³ SH.Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2016 yil 7-dekabr. T. "O'zbekiston" 2017.



hokimliklari vakolatiga tegishlidir. Bunday holatni ruxsat berish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish sohasida ham kuzatish mumkin".

Ruxsat berishga oid 220 ta hujjatdan faqatgina 11 tasini tuman yoki shaharlardan olish mumkin. Qolgan 209 tasi uchun respublika va viloyat organlariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. O'zingiz ayting, buni to'g'ri deb bo'ladingizmi?" Shu munosabat bilan barcha viloyat va tumanlarda hokimliklarning vakolatini kengaytirish va bu vakolatlarni kengaytirish orqali xalqning turmush darajasini yaxshilashga xarakter qilindi negaki vazirliklar yoki oliy majlis tuman hokimi kabi o'zi yashayotgan hududni axvolini yaxshi bilmaydi⁴. Masalan kredit berish uchun fuqoro bevosita vazirliklarga murojat qilmay hokimlarning o'zlaridan oladigan bo'lsa bu berilayotgan kreditni to'g'ri sarflanishini kuzatish va uni aynan shu o'zi ko'rsatgan dasturi bo'yicha sarlanishini aynan ular nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi. 2018-yildan tibbiyot birlashmasi, xalq ta'limi, iqtisodiyot, moliya bo'limlari, soliq inspeksiyasi va boshqa tuzilmalar rahbarlarini lavozimga tayinlash va ozod etish tuman hokimi tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi. Aynan shu sohalarining yaxshi yo'lga qo'yilsa tumanlarni rivojining ahamiyatli sohalarini bo'lib hizmat qiladi.

Keltirilgan vazifalarni bajarish yuzasidan butun Respublikada bo'lgani kabi Samarqand shahar boshqaruvida ham liberallashtirish jarayonlari keng yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Xalq qabulxonalari, Viloyat, shahar va tuman hokimlarining sayyor qabullari, xizmat ko'rsatish sohasidagi yagona xizmat ko'rsatish markazlari shahar aholisini qiynayotgan muammolarni hal etishda ijobiy samara berayotganligi islohotlar samarasi hisoblanadi.

2019 yilning 2-choragida Samarqand viloyatidagi Xalq qabulxonalariga jismoniy va yuridik shaxslardan 11000 ta (2018 yil 2 choragida 13444 ta), shu jumladan, viloyat Xalq qabulxonasiga 2446 ta murojaat kelib tushgan. Shu jumladan, Samarqand shahridagi Xalq qabulxonasiga 921 ta, Kattaqo'rg'on tumanidagi Xalq qabulxonasiga 802 ta, Oqdaryo tumanidagi Xalq qabulxonasiga 774 ta, Narpay tumanidagi xalq qabulxonasiga 593 ta, Kattaqo'rg'on shahridagi xalq qabulxonasiga 572 ta, Ishtixon tumanidagi Xalq qabulxonasiga 570 ta, Samarqand tumanidagi Xalq qabulxonasiga 557 ta, Qo'shrabot tumanidagi Xalq qabulxonasiga 550 ta, Pastdarg'om tumanidagi Xalq qabulxonasiga esa 549 ta murojaat bo'lgan.

Murojaatlarning (jami 11000 ta) 5179 tasi (47,5 foizi) qanoatlantirilgan, 4822 tasi (39 foizi) bo'yicha tushuntirish berilgan, 119 tasi rad etilgan va 849 ta murojaatlar tegishli tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan⁵.

2019 yilning 2-choragida viloyatdagi Xalq qabulxonalarini tomonidan murojaatlar bilan ishlash jarayonida yo'l qo'yilgan qonunbuzilish holatlari yuzasidan chiqarilgan takliflar natijasida 33 nafar rahbar va mas'ul xodimlar intizomiy jazoga, 8 nafari ma'muriy javobgarlikka tortilgan hamda 2 nafarining mehnat shartnomalari bekor qilingan.

Prezident Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 2 apreldagi «Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ijrosi yuzasidan «mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla» tizimining joriy qilinishi muhim samara bermoqda. Jumladan, farmonga muvofiq 2019 yil 1 iyundan boshlab fuqarolar yig'inlari xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzish⁶ va bekor qilish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси

⁵ Xalq hokimiyatchiligi: ustuvor vazifalari tanqid va tahlil „Zarafshon gazetasi“ 31-son 2020-yil

⁶ www.lex.uz



organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tuman (shahar) kengashlari raislarining birinchi o'rinbosarlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Farmondagi eng muhim yangiliklardan biri bu fuqarolar

yig'inlari raislari va mas'ul kotiblari oylik ish haqi fondining joriy yilda 1,5 baravarga oshirilishi bo'ldi. Ko'rilayotgan chora tadbirlar asosan xalqimiz hayotini yaxshilash maqsadida amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. «O'zbekiston» 2016.
2. SH.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. "O'zbekiston" 2017.
3. SH.Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2016 yil 7-dekabr. T. "O'zbekiston" 2017.
4. Xalq hokimiyatchiligi: ustuvor vazifalari tanqid va tahlil „ Zarafshon gazetasi” 31-son 2020-yil
5. www.president.uz
6. www.lex.uz